

IMOM JA'FAR BARZANJIYNING "IQDUL JAVHAR FIY MAVLIDIN-NABIYYIL AZHAR" ASARI VA MULLA YO'LDOSH XILVATIYNING "MAVLUDI SHARIF" ASARLARI QIYOSIY TAHLILI

Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna

Namangan davlat universiteti stajor o'qituvchisi

[Tel:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)

Telegram:91-342-45-31

Annotatsiya: maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti vakili Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning "Mavludi sharif" asari hamda arab olimi Imom Ja'far Barzanjiyning "Iqdul javhar fiy mavlidin-nabiyyil azhar" asari haqidagi fikrlar olg'a surilgan. Bu ikki asar qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shafolat, na't, Payg'ambar, mabhas, hikoya, voqea, mavlud, Me'roj.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИМАМА ДЖАФАРА БАРЗАНДЖИ «ИКДУЛЬ ДЖАУХАР ФИЙ МАВЛИДИН-НАБИЙИЛ АЗХАР» И МУЛЛЫ ЮЛДАША ХИЛВАТИ "МАВЛЮДИ ШАРИФ"

Мухитдинова Гулбахор Рустамджановна

учительница Наманганского государственного университета

[Тел:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)

Телеграм:91-342-45-31

Аннотация: В статье изложены мнения о произведении муллы Юлдаша Хилвати, представителя узбекской классической литературы «Мавлуди Шариф» и труда арабского ученого имама Джафара Барзанджи «Икдул Джаухар фий Мавлидин-Набиил Азхар». Эти две работы подвергаются сравнительному анализу.

Ключевые слова: заступничество, нат, Пророк, вопрос, рассказ, событие, Мавлюд, Мирадж.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE WORKS OF IMAM JAFAR BARZANJI "IKDUL JAUHAR FIY MAVLIDIN-NABIYYIL AZHAR" AND MULLA YULDASH KHILVATI "MAVLUDI SHARIF"

Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna

Namangan State University teacher

[Tel:90-279-73-79](tel:90-279-73-79)

Telegram:91-342-45-31

Annotation: The article presents opinions on the work of Mullah Yuldash Khilvati, a representative of Uzbek classical literature “Mavludi Sharif” and the work of the Arab scholar Imam Jafar Barzanji “Iqdul Jauhar fiy Mavlidin-Nabiil Azhar”. These two works are subject to comparative analysis.

Key words: intercession, nat, Prophet, question, story, event, Mavlyud, Miraj.

KIRISH

“Mavlud” tushunchasi arab tilida “tug’ilish” ma’nosini ifodalaydi. Islom olamida mazkur tushunchaga chuqur hurmat bilan qaraladi. Boisi bu tushuncha orqali islom dini Payg’ambari Muhammad alayhissalomning dunyoga kelgan chog’lari, ya’ni tug’ilish voqeasi bayon etiladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, mavlud haqida juda ko’p asarlar bitilgan. Jumladan, arab, fors-tojik, turkiy tillarda mavzkur voqea tasvirlangan manbalar mavjud. Shunday manbalardan biri arab tilida yozilgan “Iqdul javhar fiy mavlidin-nabiyyil azhar” asari hisoblanadi. Asar Imom Ja’far Barzanjiy qalamiga mansub bo’lib, arab tilida bitilgan. Uning o’zbek tilidagi tarjimasini avlodlardan avlodga o’tib kelmoqda. Xususan, 2022- yilda J. Shodiyev mas’ul muharrirligida, nashrga tayyorlovchilar A.Tursunov, I. Nurulloh tomonidan nashr etilgan. Mazkur kitobda asarning arabcha varianti (arab yozuvida), kirillcha o’qilishi hamda o’zbekcha tarjimasini keltirilgan bo’lib, bu asar nasrda bitilgan.

Mulla Yo’ldosh Xilvatiy Namangan adabiy muhiti ijodkori bo’lib, XX- asr boshlarida ijod qilgan. Uning islom dini Payg’ambari Muhammad (s.a.v.) hayotlaridan hikoya qiluvchi “Mavludi sharif” asari turkiy tilda yozilganligi bilan ahamiyatlidir. Muallif bu asarni yozishdan avval Payg’ambar Muhammad alayhissalomni tushida ko’radi. Xosiyatli tush sababidan ustoz Langariydan fотиha olib, kitobni yozishga kirishadi. She’riy doston janrida bitilgan ushbu asar o’zbek kitobxonlari uchun tarixiy manba sifatida juda qimmatli yodgorlik sanaladi.

TADQIQOT MAQSADI VA METODOLOGIYASI

Ma’rifatparvar shoir va yozuvchilar ilmiy-badiiy merosini o’rganish bugungi kun adabiyotshunos tadqiqotchi olimlari zimmasiga yuklangan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda Namangan adabiy muhiti namoyandalari ijodini puxta o’rganish, ularni badiiy, qiyosiy jihatdan tahlil qilish va keng omma e’tiboriga havola etish tadqiqotning eng muhim maqsadidir.

1858-yilda Namanganda tug’ilgan Mulla Yo’ldosh Xilvatiy Imom Ja’far Barzanjiydan qariyb yuz yil keyin yashab-ijod qilgan bo’lib, 1895- yilda o’zbek tilida “Mavludi sharif” nomli doston janriga xos asar yaratadi. Ayrim olimlar tomonidan mazkur asar Barzanjiy kitobining o’zbek tilidagi tarjimasini deb noto’g’ri taxmin qilingan. Aslida asar umuman boshqa janrda bitilgan bo’lib, aynan tarjima emas.

Arab tilida bitilgan “Iqdul javhar fiy mavlidin-nabiyyil azhar” asari bilan turkiyda yozilgan “Mavludi sharif” asarlarining qiyosiy tahlilini amalga oshirishda

badiiy, tarixiy, qiyosiy metodlardan o'rinli foydalanildi. Ikkala manba chuqur o'rganilib, o'xshash va farqli tomonlari aniqlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab tilidagi "Mavlud" asarida so'z boshidan so'ng muallif Imom Barzanjiy hayoti haqida ma'lumot berilgan bo'lib, muallifning 1713 – 1764 - yillarda yashab o'tgani ma'lum qilinadi. Shuningdek, hayoti davomida uchta katta asar yozganligi, bular: "Iqdul javhar fiy mavlidin-nabiyyil azhar", "Risalatul fi manaqib sayyidina Hamza ibn Abd-ul Muttolib", "Al –g'usn al – vardiy fi axbor sayyid al-mahdiy" asarlari ekanligi ta'kidlanadi. U o'z zamonasining fazilatli shayxi, buyuk olimi, taqvodor muftiysi sifatida e'tirof etiladi. Barzanjiy asari jami yigirma bir mabhasdan iborat bo'lib, mazkur tushuncha tarjimada "masala", "muammo" ma'nolarini anglatadi. 1-mabhas "Al-mabhasul avval" deb nomlanadi va unda muallif mavlidi sharif qissasini ulug' Zotning ismi bilan boshlaganligini aytadi. Qissani go'zal, nozik jumlar bilan kengroq bayon qilganligi ta'kidlanadi. 2-mabhas "Al-mabhasus sani" deb nomlanadi. Unda Muhammad alayhissalomning nasablari xususida fikr yuritiladi. 3-mabhas "Al-mabhasus salis" deb nomlanib, bunda ham Alloh poklagan nasab haqida yozilgan. 4-mabhas "Al-mabhasur rabi" deb nomlanadi va mazkur mabhasda muborak homila, ya'ni Muhammad alayhissalomning homilalik davrlari, onalari Omina xususlarida qimmatli fikrlar keltirilgan. 5-mabhas "Al-mabhasul xomis" bo'lib, muallif Payg'ambar Muhammad alayhissalomning tavallud topishlari, ya'ni mavlud kechasi haqida ma'lumotlar bergan. 6-mabhas "Al-mabhasus sadis"da muborak yuzlaridan nur taralishi hamda bu voqeaning kofirlar uchun xuddi vabodek bo'lishi ifodalangan. 7-mabhas "Al-mabhasus sabi" bo'lib, mazkur masala ham mo'jizali tug'ilish xususidadir. 8-mabhas "Al-mabhasus samin" deb nomlanadi va unda Payg'ambar Muhammad alayhissalomning tavallud vaqtlarida o'sha zamon arab qabilalarida mavjud bo'lgan noodatiy voqealar bayon etiladi. 9-mabhas "Al-mabhasut tasi" bo'lib, mazkur masala Payg'ambar Muhammad alayhissalomning go'daklik chog'larida emizilishlari, ya'ni ul zotga oq sut bergan Yamandagi Aslam qabilasi cho'risi, Abu Lahabning xizmatkori Suvayba va Sa'diya qabilasidan Halima ismli ayollar haqida ma'lumot berilgan. 10-mabhas "Al-mabhasul 'ashir"da esa Payg'ambar Muhammad alayhissalomning payg'ambarlik muhrlari hamda go'daklik chog'larida ikki farishtaning kelib, ko'ksilarini yorib, laxta qon-shaytonning nasibasini olib tashlab, qayta tikib qo'yganligi voqeasi ta'riflanadi. 11-mabhas "Al-mabhasul hadiy 'ashar"da ulg'ayishlari, 12-mabhas "Al-mabhasus sanii 'ashar"da tijorat safari va nikoh masalasi, 13-mabhas "Al-mabhasus salis 'ashar"da muqaddas Ka'baning qayta qurilishi, 14-mabhas "Al-mabhasur rabi' 'ashar"da risolat davrining boshlanishi, 15-mabhas "Al-mabhasul xomis 'ashar"da ilk payg'ambarlik davri, 16-mabhas "Al-mabhasus sadis 'ashar"da Isro va Me'roj voqeasi bayoni, 17-mabhas "Al-mabhasus

sabi' 'ashar"da qabilalarni islom diniga chorlash, 18-mabhas "Al-mabhasus samin 'ashar"da Muhammad alayhissalomning hijratlari, 19-mabhas "Al mabhasut tasi' 'ashar" da Ul Zoti sharifning mo''jizalari, 20-mabhas "Al-mabhasul 'ishrun"da shakl-shamoillari, 21-mabhas "Al-mabhasul vahid val-'ishrun"da muborak tabiatlari xususida fikr yuritiladi. So'nggi qism "Du'au mavlidin nabiy alayhissalom", ya'ni "Mavlidin nabiy (alayhissalom) duosi" deb nomlanib, bunda Ja'far Barzanjiy Yaratganga duolar qiladi. Barzanjiy Payg'ambar Muhammad alayhissalomning shakl-shamoillari xususida shunday misralarni bitadi:

"O'rta bo'ydan sal novcharoq, qizillik aralashgan oq (qizg'ish-oq) rangli, ko'zlari qora, katta-katta, kipriklari uzun, qoshlari ingichka, oysimon, old tishlarining orasi ochiq, og'izlari keng va chiroyli, peshonalari keng va oy kabi nurli, yuzlarining ikki chakkasi tekis, burunlarining uchi pastga moyil, keng yelkali, qo'llari xushbichim, barmoqlari o'rtacha uzunlikda, bo'g'im suyaklari yo'g'on, tovonlari go'shtsiz, sersoqol, boshlari katta, sochlari quloqlarining yumshoqlarigacha tushgan" – deyiladi [Shodiyev, 3: 91].

Xilvatiyning "Mavludi sharif" asari nodir durdona sifatida arab tilidagi asarning yaxlit tarjimasini emasligi, umuman boshqa janrda, boshqa uslubda yozilganligi ma'lum. Bu fikrni namanganlik olimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Rhd) Ozodaxon Boltaboyevaning olib borgan tadqiqotlarida uchramiz [Boltaboyeva, 4:5]. Xilvatiyning "Mavludi sharif" asari xalq orasida "Mavludi sharifi turkiy" nomi bilan mashhur bo'lgan va ko'pchilikning talabiga ko'ra, 1899, 1908, 1911, 1913, 1916- yillarda qayta-qayta chop etilgan. Ushbu asarni

nashr etishga talab ko'pligining bir sababi shuki, xalqimiz mavlud marosimida o'qiladigan arabcha kitoblar mazmun-mohiyatini tushunishga qiynalgan. Xuddi shu mazmundagi asarlarni faqat arab tilini yaxshi bilgan olimlar, ulamolargina o'qigan. Xilvatiyning ushbu asari esa turkiy tilda Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom mavludlari haqida yozilgan birinchi she'riy asar hisoblanadi. Asarning hijriy 1331- (milodiy 1913) yilda xattot Abduqodir Shoshiy tomonidan ko'chirilgan toshbosma nusxasi Xilvatiy avlodlarining shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.

Mustaqillik sharofati bilan diniy asarlarni nashr etish imkoniyati tug'ildi. Masalan, Xilvatiyning "Mavludi sharif" asari 1991- yil Xayrulla Qosim Elturk, 2000 - yilda esa Abdulhamid Qurbonov tomonidan nashr etildi [Qurbonov, 5:3], [Xayrulla Qosim, 6:3]. Xalqimizning diniy e'tiqodi mustahkamlana borayotgan bir sharoitda asarni o'qishga bo'lgan talab kundan kun ortib bordi. "Mavludi sharif"ning yangi nashrlari Xilvatiyning XX - asr boshlarida chop ettirgan toshbosma asari nusxalari asosida nashr etilmoqda. Xususan, ushbu asar 2003, 2004, 2013, 2015, 2017- yillarda ham kirill yozuvida nashrdan chiqdi [Xilvatiy, 1:5], [Xilvatiy, 2:6]. Asar nazmda, ya'ni she'riy usulda bitilgan bo'lib, umumiy hajmi 138 sahifa, 1017 baytdan iborat.

Kitob Rasululloh (s.a.v.) ga bag'ishlangan 2 ta g'azal bilan boshlanadi:

Marhabo, ey Sarvari har du jahon,

Sayyidi olam, Rasuli insu jon [Abdujalilov, 7:9].

Shundan so'ng muqaddima boshlanadi. Uning dastlabki misralarida Allohga hamd keltiriladi:

Hamd ul zoteg'akim, Rabbi jahon,
Xoliqi arzu samovu insu jon.

Podshohi besipohu bevazir,
Tojdori bekulohu besarir [Abdujalilov, 7:12].
Muqaddimadan so'ng Rasululloh (s.a.v.) ga na't aytiladi:
Ul Muhammadkim Rasulullohdur,
Sarvari jumla gadovu shohdur [Abdujalilov, 7:13].

Na'tdan keyin muallif mavlud o'qimoq xosiyatlari xususida ma'lumotlar keltiradi. Shundan so'ng mavlud o'qish haqidagi ikkita ibratli hikoya bayon etiladi. Hikoyalardan keyin Rasululloh (s.a.v.) muborak nurlarining yaratilishi xususida fikr yuritiladi. Ushbu nurning parda ichida tasbeh va tahlil aytganligi bayoni, so'ng qandilda tasbeh aytganligi bayoni, shuningdek, Jabrail va Rasuli akram (s.a.v.) o'rtalarida bo'lib o'tgan suhbat bayoni, Ul Zoti sharifning jismlari yaratilishi, bobolari Abdulmuttalibning Ka'bada farzand so'rab iltijo qilganliklari bayoni, Abdulloh ibn Abdulmuttalibning dunyoga kelishlari, shahid bo'lganliklari, ul muborak nurning yo'qlik pardasidan chiqib, vujud olamida sayr qilganligi bayoni, Mavlud kechasida sodir bo'lgan voqealar bayoni, Jabrail alayhissalomning vahiy keltirganligi bayoni, Muhammad alayhissalom mo'jizalari bayoni, ikki farishta qush qiyofasiga kirib, Rasuli akram huzurlariga kelganligi bayoni, vanihoyat kitob xotimasida Me'roj kechasi bayoni keltiriladi. Asarda Me'roj kechasi uchun katta o'rin ajratilgan bo'lib, o'n sahifadan iborat. Kitob xotimasida esa shoir o'zini xasta, bechora bilib, umrni behuda sarflamaslikka, har nafas Alloh va uning Habibini yod olishga chaqiradi:

Yo Iloho, xastavu bechoramiz,
Fisqu isyon dashtida ovoramiz.

Ma'siyatdur kecha-kunduz korimiz,
Qolmadi sharmu hayovu orimiz.

Har nafas yoding qilib, yo Zaljalol,
Bo'lmaduk charxi xayol uzra hilol [Abdujalilov, 7:110].

Xilvatiyda ham Payg'ambar Muhammad alayhissalomga xos bo'lgan mo'jizakor tana a'zolari maqталadi. Lekin u biroz boshqacha yoritilgan. Xilvatiy mavzuni she'riy usulda bitgani bois ham ancha boyitib, badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardan mohirona foydalangan. Jumladan, Ul Zoti sharifning vujudlari

haqida gapirib, nurdan paydo bo'lganliklari sabab yerga soyalari tushmasligini tasvirlaydi:

Avvali bukim, tani vujudini,
Ul muborak jismi nuroludini

Yerg'a tushmas erdi hargiz soyasi,
Ko'rmas erdi soyasin hamsoyasi [Abdujalilov, 7:86].

Xilvatiy Muhammad alayhissalomning ko'zlari haqida so'z ocharkan, orqa tomondagi narsalarni ham xuddi old tomonda ko'rgan kabi yaxshi ko'rishlarini aytadi:

Ko'rgay erdi oshkorou ham nihon,
Orti ham oldi kabi erdi ayon [Abdujalilov, 7:87].

Shoir Payg'ambar alayhissalomning quloqlarini tasvirlar ekan, bu quloqlar olis masofadagi ovozlarni ham yaqqol eshita olish qobiliyatiga ega bo'lganligini ifodalaydi:

Mo'jiza erdi qulog'ida chunin,
Eshitar erdi yiroqni chun yaqin [Abdujalilov, 7:87].

Xilvatiy Ul Zoti sharifning lablari takallumda ekanligini aytib, mehrda tanho ekanliklarini bayon etadi:

Lablari vaqti takallumda agar
Topsa gar tahrik, ey nuri basar.

Tebranur erdi falakda qasri mehr,
Mehr tanho yo'qki, bal mohu sipehr [Abdujalilov, 7:87].

Badiiy adabiyotda ko'pincha tishlar durga qiyoslanadi. Xilvatiy ham shu an'anaga muvofiq tishlarni durga o'xshatib, zulmat qoplagan paytda bu tishlar ko'rinadigan bo'lsa, atrof yorug'lashib ketishini ifodalaydi:

Kechalar dur tishlari bo'lsa ayon,
Kunduzidek ravshan o'lg'aydi jahon [Abdujalilov, 7:87].

Nubuvvat muhri haqida ko'p manbalarda turlicha fikrlar aytilgani ma'lum. Payg'ambarlik muhri Muhammad alayhissalomning ikki kuraklari o'rtasida joylashgan bo'lib, shoir mazkur muhr ravshanligini tun aro ko'kda porlagan mohga o'xshatadi:

Ham nubuvvat muhri zahrida chu moh
Ravshan erdi tunu aro ey ahli roh [Abdujalilov, 7:87].

Islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalom hayotlaridan hikoya qiluvchi manbalarning barchasida Ul Zoti sharifdan muattar hid anqib turishi ifodalangan. Muallif ham ana shu ma'lumotga tayanib, Payg'ambar alayhissalomning sochlari shamolda tebransa, butun olam muattar hid bilan chulg'anishini bayon etadi:

Zulfig'a tegsa agar bodi sabo,

Mushku an barg'a to' lur erdi havo [Abdujalilov, 7:87].

Inson terlagan paytda badanidan chiqadigan ter misoli suv tomchisiga o' xshaydi. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy islom dini Payg'ambari Muhammad (s.a.v.) terlagan paytlarida tanalaridan chiqqan terlar yer bag'riga gul bo'lib to'kilishini e'tirof etadi:

Dona-dona terlayub to'ksa araq,

Har biri bir gul bo'lurdi muttafaq [Abdujalilov, 7:87].

Tarixiy va diniy manbalarning barchasida "Shaqqi qamar" voqeasi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Oyning ikkiga bo'linishi voqeasiga ishora qilgan holda shoir Ul Zotning barmoqlari naqadar mo'jizakor ekanligini ifodalaydi:

Chun ishorat qildi ul Mahbubi Haq,

Barmog'i birla qamarg'a bo'ldi shaq [Abdujalilov, 7:87].

XULOSA VA NATIJALAR

Xulosa qilib aytganda, Imom Ja'far Barzanjiyning "Iqdul javhar fiy mavlidin-nabiyyil azhar" hamda Mulla Yo'ldosh Xilvatiyning "Mavludi sharif" asarlari o'rtasida ancha tafovutlar bor:

1. "Iqdul javhar fiy mavlidin-nabiyyil azhar" 1713 – 1764- yillar oralig'ida, "Mavludi sharif" esa 1895- yilda, ya'ni qariyb yuz yildan keyin yozilgan.
2. Barzanjiy asari arab tilida, Xilvatiy asari turkiyda bitilgan.
3. Arabcha mavlud nasrda, o'zbekcha mavlud nazmda bitilgan ilk she'riy doston hisoblanadi.
4. Barzanjiy kitobi 21 ta mabhas, ya'ni masaladan iborat, Xilvatiyning asari esa bir nechta hikoyalar va ikkita g'azaldan, jami 1017 baytdan iborat.
5. Barzanjiyda poklangan nasab va muborak homila haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xilvatiyda esa mazkur masalalar yoritilmagan.
6. Arab tilida bitilgan mavludda o'sha zamonda qabilalar o'rtasidagi noodatiy voqealar hamda Payg'ambar Muhammad alayhissalomning emizilishlari to'g'risida voqealar bayon etilgan. Xilvatiy dostonida esa mazkur mavzular tilga olinmagan.
7. Xilvatiy kitobida ikki farishta (Jabroil va Mikoil)ning qushlar qiyofasida kelib suhbat qurishganligi yozilgan, biroq bu hodisa Barzanjiy asarida uchramaydi.
8. Payg'ambar Muhammad alayhissalomning go'daklik chog'larida ko'ksilarining yorilishi voqeasi Barzanjiyda ifodalangan, Xilvatiy asarida esa keltirilmagan.
9. Shuningdek, tijorat safari hamda Hadicha bintu Huvaylidga nikohlanish voqealari Barzanjiyda bor, Xilvatiyda mavjud emas.
10. Ka'baning qayta qurilishi, risolat davri, hijrat voqeasi, islom diniga chorlash

masalalari Imom Ja'far Barzanjiy tomonidan yoritib berilgan. Biroq bu hodisalar o'zbekcha mavludda uchramaydi.

11. Har ikkala manbada uchraydigan voqealar bular - Isro va Me'roj kechasi, Mavlud kechasi, Payg'ambar Muhammad alayhissalom mo''jizalaridir. Isro va Me'roj kechasiga Barzanjiyda faqat bir sahifa ajratilgan bo'lib, voqea Masjidul Haramdan Masjidul Aqsoga sayr qilishdan boshlanadi. Xilvatiyda esa o'n sahifa ajratilgan bo'lib, Allohning Jabroil alayhissalomga Jannati Naimga borib, Buroqni topishni buyurganidan boshlanadi. Mavlud kechasi bayoni Xilvatiyda to'rtta hikoya asosida bitilgan, ya'ni keng o'rin berilgan bo'lib, batafsil yoritilgan. Barzanjiyda esa bir sahifadan iborat bo'lib, Rasululloh alayhissalomning qo'llarini kaftlari bilan yerga qo'yib, boshlarini osmonga ko'targan holda tug'ilganlari voqeasi bilan boshlanadi.

12. Muhammad alayhissalomning muborak vujudlari, shakl-shamoillari Barzanjiy kitobida nisbatan soddaroq, oddiy so'zlar vositasida yoritiladi. Xilvatiyda esa bundan farqli o'laroq she'riy san'atlar, badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan holda tasvirlanadi.

Bir so'z bilan aytganda, bu ikki asarning qiyosiy tahliliga ko'ra Barzanjiy va Xilvatiy "Mavlud"lari bir-biridan tamomila farq qiladi. Imom Ja'far Barzanjiyda ham, Mulla Yo'ldosh Xilvatiyda ham o'ziga xos jihatlar mavjud. Ikkala olim ham mavzuni juda keng, batafsil yoritib berganlar. Xilvatiy Barzanjiy asaridan ilhomlangan holda, asardagi ma'lumotlardan o'rinli foydalangan. Umuman olganda arab, fors-tojik, turkiy va boshqa xalqlar adabiyotida mazkur mavzuga qiziqish juda kuchli bo'lib, olimlar tomonidan hanuzgacha o'rganiladi. Bu esa o'z navbatida musulmon olamida muhim ahamiyat kasb etgan buyuk shaxs, komil inson, Allohning suyukli Habibi, ya'ni islom dini Payg'ambari Muhammad alayhissalomga bo'lgan chuqur ehtiromdan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xilvatiy M. Mavludi sharif. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2015.
2. Xilvatiy M. Mavludi sharif. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
3. Shodiyev J. Mavlidi Barzanjiy. – Toshkent: Book Media Nashr, 2022.
4. O.Boltaboyeva. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik. (Phd) dissertatsiya, Toshkent: 2019.
5. Qurbonov A, Abdullaev I. Xilvatiy. Mavludi sharif. – Namangan: Namangan, 2000.
6. Xayrulla Qosim Elturk. Xilvatiy. Mavludu-n-nabiy sallallohu alayhi vasallam. – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
7. Abdujalilov A. Mavludi sharif. – Toshkent: Qamar media, 2021.